

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Xo'jamatova Dildoraxon Baxromjon qizi,
Xalqaro Nordik universiteti 2-bosqich magistranti
E-mail: xojamatovadildoraxon@gmail.com

ARTICLE INFO**ARTICLE HISTORY:***Received: 18.04.2025**Revised: 19.04.2025**Accepted: 20.04.2025***ABSTRACT:**

Bugungi zamонавиъ та'лим тизимда о'qish savodxonligi eng muhim va ajralmas yo'naliшlaardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida ushbu ko'nikmaning mustahкам poydevorga ega bo'lishi nafaqat bolaning o'qish savodxonligi, tafakkuri va nutqiy rivojlanishi balki uning kelajakdagi o'quv faoliyati uchun ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida savodxonlik masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani, ushbu sohada yangicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga ehtiyojning ortib borayotgani o'qish savodxonligini rivojlanirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini zamонавиъ, innovatsion va samarali metodlar asosida rivojlanirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada izohli o'qish, aql xaritasi, rolli o'yin, rasm asosida hikoya tuzish, mosini topish, matn qismlarini joyiga qo'yish, rangli so'zlardan foydalanish, muammo asosida o'qitish, individual yondashuv, motivatsion rag'bat tizimi, multimedia vositalaridan foydalanish va guruhlardagi hamkorlikka asoslangan faoliyat kabi metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Har bir usul amaliy mashg'ulotlar orqali sinovdan o'tkazilib, o'quvchilarining matnni tushunish qobiliyati, o'qish savodxonligini rivojlanirishga, tanqidiy fikrlashi hamda o'qishga bo'lgan

KEYWORDS:

*boshlang'ich sinf,
motivatsiya, izohli
o'qish, o'qish
savodxonligi, pedagogik
texnologiyalar, rolli
o'yin, metodlar,
o'quvchi faolligi.*

motivatsiyasida ijobjiy o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan nazariy asoslar hamda amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

KIRISH

Savodxonlikni rivojlantirish boshlang'ich ta'larning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi va ta'lim tizimining tarkibiy qismidir. Texnologiyaning tez sur'atda rivojlanishi turli sohalarga, shu jumlada, ta'limga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda ham bugungi kunda zamonaviy metodlar va texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu jarayonda o'quvchilarning o'qish savyasini oshirish, matnni tushunish, tahlil qilish va o'z fikrini erkin ifoda eta olish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'yamoqda. Bunday usullar nafaqat ta'lim jarayonini jonlantiradi, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini va ishtirokini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. So'nggi yillarda ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan turli usul va yondashuvlarni o'rta ga chiqarmoqda. Ular o'quvchilarning mantnni tushunish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalyotda tadbiq etishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILII VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shuningdek, o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, motivatsiyani oshirish va turli pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik metodlar, shu jumladan interaktiv o'qish, rolli o'yinlar, aql xaritalari, multimedia vositalari va izohli o'qish kabi metodlar, o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini yanada mustahkamlash va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali vositalar sifatida ko'rilmoxda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu usullar o'quvchilarda nafaqat o'qish savodxonligini, balki tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, bu usullar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari, o'quv materiallarini yanada chuqurroq tushunishlari va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishlari mumkin.

2020-2030- yillarga mo'ljallangan mamlakatimizda Davlat ta'lim sifatini oshirish yuzasidan konseptsiyasini ham interfaol metodlarning muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda boshlang'ich ta'limni sifatini oshirishda interfaol metodlardan

foydalanish ommalashdi. Zero bularning barchasi ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

V.A.Suxomlinskiy mактабида о'qish darsligining asosiy elementi ifodali o'qish edi. Hamma o'quvchilar bir vaqtning o'zida ovoz chiqarib o'qiyotganda, o'rtoqlariga xalaqit bermaslik uchun, har biri o'z tezligida, kimdir tezroq, kimdir sekinroq o'qiydi.

- Chaqmoq o'qish: bolalar hamma uchun qulay bo'lgan o'qish tezligida o'qiydi. Buyruq yordamida 20 soniyadan 2 daqiqagacha bo'lgan tezkor rejimda ovoz chiqarib o'qishga o'tishadi. Ushbu almashtirish usuli individual tezlik oralig'ini yuqori chegarasini oshirish uchun ishlatiladi.

- Barmoqlar mashqi: "Ichingizda o'qing" buyrug'i bilan bolalar chap qo'lining barmog'i bilan lablarini mahkam bosishadi. Ushbu mashq bolalarning o'zlari uchun o'qishni va ovoz chiqarib o'qishni aniq ajratish uchun ishlatiladi.

- Matnni mantiqiy ketma-ketligini tiklash: Berilgan yoki tanlangan mavzu bo'yicha matnli mulohazalar yig'ish. Ushbu mashqlar o'quvchilarini rivojlantirish uchun, asosan, jamoaviy ishlar uchun foydalaniladi.²⁶

J.Burner o'z ilmiy qarashlarida quyidagi nazariyani ilgari suradi. "Har qanday fanni xar qaysi yoshdagи bolaga samarali o'rgatish mumkin. Bunda xar bir yosh bosqichida bola olamni o'ziga hos tarizda ko'rish va tushuntirishni e'tiborga olish hamda o'rgatiladigan narsani bolaning qarashlariga monand talqin etish talab etiladi."²⁷

"Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi"²⁸

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish usullarini takomillashtirish yo'llari o'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu ko'nikmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan turli usul va yondashuvlarni taklif etmoqda. Bir paytlar

²⁶ Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish (PhD dissertatsiyasi). Namangan davlat universiteti. Asqarova, 2020 . 96b

²⁷ "PEDAGOGIK MAHORAT" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2-son. Buxoro, 2023

²⁸ Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent,1968. 106-107b

Genri Ford aytganidek, "Bajara olaman deb o'ylaysanmi yoki bajara olmayman deb o'ylaysanmi, sen ikkisida ham haqsan" Ushbu gapdan ko'rinish turibdiki, barcha chegaralarni o'zimiz yaratamiz. Aslida chegaralar mavjud emas. Shuning uchun, yangi metod yoki ko'nikmani o'rganish menga emas degan gap, aslida yolg'on.²⁹

Aql xaritasi metodi ingliz psixolog Toni Buzan tomonidan taklif qilingan bo'lib, bu usul orqali axborot markaziy tushunchadan nisbatan kengroq va turli yo'nalishlarda tarqaluvchi shoxchalar yordamida tuziladi. Har bir shoxcha kalit so'zlar, tasvirlar, ranglar va belgilar orqali ifodalanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning eslab qolish, bog'liqlikni tushunish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun aql xaritasi dars jarayonida quyidagicha qo'llanilishi mumkin:

- Matnni o'qib chiqqach, asosiy g'oyani aniqlash va markazga joylashtirish.
- Matn bo'yicha muhim tafsilotlarni shoxchalar shaklida taratish (ob-havo, voqealar, qahramonlar, sabab-oqibatlar).
- Har bir shoxchani rangli va ko'rgazmali tarzda ifodalash orqali o'quvchining ishtirokini faollashtirish. Bu usul o'quvchilarning:
 - matnni chuqur tushunish;
 - mustaqil fikr bildirish;
 - mantiqiy bog'liqlikda hikoya qilish;
 - so'z boyligini oshirish;
 - ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda metodik yangiliklar, motivatsion elementlar va o'quvchilarni faol ishtirokka jalb qiladigan usullar muhim ahamiyatga ega.

Darsda guruhlarda ishslash orqali aql xaritasi tuzish o'quvchilarning hamkorlikda fikr yuritish, fikrlarni asoslash, o'z xaritasini himoya qilish orqali nutqiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.³⁰

Tadqiqotchi Gofmanning so'zlariga ko'ra inson miyasi yangi topshiriqni bajarish uchun uning ortidan biror mukofot kutadi. Agarda yangi topshiriq mukofotsiz ekani ko'rinish tursa, miya uni stress tarzida qabul qiladi.³¹

²⁹ Kreativ Pedagog loyihasi, O'rta maxsus ta'lif muassasalari o'qituvchilari uchun kasbiy faoliyatida foydalanish uchun uslubiy, metodik qo'llanma.7b

³⁰ Buzan, T. (2010), Aql xaritasi kitobi. BBC faol

³¹ Gofman,E 2001. Ta'lif va motivatsiya psixologiyasi. Toshkent

2023-yilda nashr etilgan "Enhancing Learning Motivation in Elementary Schools: The Impact and Role of Rewards" tadqiqoti mualliflari Roslida Sigalingging, Hotma Nababan, Alex Putra va Mandasari Nababan bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirishda mukofotlarning roli haqida so‘z yuritadilar. Tadqiqot mukofotlarning o‘quvchilarning tashqi motivatsiyasidan ichki motivatsiyasiga o‘tishiga yordam berishini ko‘rsatadi, shuningdek, mukofotlarning o‘quv muhitida ijobiy o‘zgarishlar yaratishda muhimligini ta’kidlaydi.³²

Izohli o‘qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni “ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga” o‘rgatishni alohida ta’kidlaydi va uni “Izohli o‘qish” deb nomlaydi. Izohli o‘qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritadilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.³³

Tadqiqot Toshkent shahridagi umumta’lim maktablarining 1-2-3-4-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, amaliy kuzatuv, suhbat va tajriba asosidagi metodlar qo‘llanildi. Aql xaritasi (mind mapping), izohli o‘qish, mukofotlash orqali motivatsiya berish, rolli o‘yin, tasvirlash va guruhlarda ishslash kabi usullar sinflarda 3 oy davomida qo‘llanildi. Har bir metoddan keyin o‘quvchilarning bilim darajasi, so‘z boyagini, matnni tushunish, nutqiy faoliyatini va ishtirok faolligi baholandi. Tadqiqotning har bir bosqichi natijalari aniq statistik ko‘rsatkichlar bilan qayd etildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaeva, D. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Allayeva, S., & Xolmurodova, M. (2021). Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish yo‘llari. O‘zDJTU ilmiy jurnali, 3(2), 45–50.
3. Azizova, N. (2019). Matn ustida ishslash metodikasi: boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llanma. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Hasanov, B. (2022). O‘qish savodxonligi va uni rivojlantirishning psixopedagogik asoslari. Pedagogik ta’lim, 5(1), 34–39.

³² <https://doi.org/10.35335/jiph.v12i1.27>

³³ Ushinskij. K.D 1997, Pedagogika Sochniya. Moskva

-
5. Nazarova, G. (2018). O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish metodikasi. Andijon:O‘qituvchi nashriyoti.
6. Rahimova, D. (2021). Boshlang‘ich sinf darslarida interfaol metodlar. Boshlang‘ich ta’lim muammolari, 4(3), 60–65.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Snow, C. E., & Biancarosa, G. (2003). *Reading for Understanding: Toward an R&D; Program in Reading Comprehension*. Santa Monica, CA: RAND Corporation.
9. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. New York: Routledge.
10. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2013). *Teaching and Researching Reading* (2nd ed.). New York: Routledge.
11. Sigalingging, R., Nababan, H., Putra, A., & Nababan, M. (2023). Enhancing Learning Motivation in Elementary Schools: The Impact and Role of Rewards. *Educational Research Journal*, 7(1), 22–30.
12. Ushinskiy, K. D. (1864). *Izohli o‘qish metodikasi*. Toshkent: Iste’dod nashriyoti.
13. Suxomlinskiy, V. A. (1974). *Pedagogik amaliyotda insonning axloqiy tarbiyasi*. Moskva:Prosvetshcheniye nashriyoti.